

FUNKTSIONAL YO'NALISHLAR

Ta'lim va kadrlar tayyorlash

- Onkologiya, gematologiya va immunologiya yo'nalishida klinik ordinatorlarni tayyorlash.
- Onkogematologiyaga o'tayotgan shifokorlar uchun qayta tayyorlash kurslari.
- Yetakchi tibbiyot tashkilotlari standartlariga mos xalqaro darajadagi sertifikatlash.
- Bolalar onkologlari, gematologlari, immunologlari va tegishli mutaxassislar uchun malaka oshirish kurslari.
- Bolalar onkologiyasida faoliyat yurituvchi hamshiralar uchun ixtisoslashgan dasturlar (USMLE, NCLEX).
- Uzluksiz tibbiy ta'lim (onlayn): vebinarlar, masofaviy kurslar, interaktiv ma'ruzalar orqali.
- Klinik ko'nikmalarni trenajyorlar va virtual bemorlar orqali mashq qilish uchun simulyatsion markaz.

Ilmiy va innovatsion faoliyat

- Xalqaro tavsiyalarga asoslangan davolash standartlari va protokollarini ishlab chiqish.
- Diagnostika va terapiyaning yangi usullarini izlashga qaratilgan ilmiy va klinik tadqiqotlar.
- Davolash va o'qitishda yangi texnologiyalarni joriy etish uchun innovatsion markaz.
- Masofaviy maslahatlar va murakkab klinik holatlarni muhokama qilish uchun telemeditsina.

Amaliy o'qitish va tajriba almashinuvi

- Yetakchi mutaxassislar ishtirokida seminarlar, treninglar, mahorat darslari, konferensiyalar.
- Xalqaro tibbiyot markazlari bilan almashinuv dasturlari.
- Ta'lim va ilmiy tadbirlarni o'tkazish uchun xalqaro ekspertlarni jalb etish.
- Bolalar onkologiyasi mutaxassislari assotsiatsiyasi — professional hamjamiyatni birlashtirish.
- Markaziy Osiyodagi yosh mutaxassislar o'rtasida klinik keyslar bo'yicha olimpiadalar.

Axborot va kommunikatsion platforma

- Zamonaviy ilmiy nashrlar va o'quv materiallariga kirish imkonini beruvchi axborot portali va kutubxona.
- Suzak suyak iligi va boshqa donorlik turlariga kirishni yaxshilash uchun Markaziy Osiyo donorlarining yagona reyestri